

ISSN (E) - 2184-1334

30.01.2021



FARG'ONA VILOYATI, BAG'DOD TUMANI
8-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI

**“ILM-FAN VA TA'LIMDA
INNOVATION YONDASHUVLAR,
MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”**



**KO'P TARMOQLI 8-SONLI RESPUBLIKA
ILMIY-ONLAYN**

KONFERENSIYASI

**ICI WORLD
of JOURNALS**



OPEN ACCESS



FARG'ONA VILOYATI, FARG'ONA SHAHRI
ISTE'DOD KO'CHASI 1-UY, 1-XONADON



+99891-152-93-14



WWW.ACADEMIASCIENCE.ORG



"ACADEMIA SCIENCE"

"UzACADEMIA"

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

ISSN (E) – 2181 – 1334

**"ILM-FAN VA TA'LIMDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA
YECHIMLAR" MAVZUSIDAGI 8-SONLI RESPUBLIKA
ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI**

MATERIALLARI TO'PLAMI

30-YANVAR, 2021-YIL

1-QISM

**MATERIALS OF THE 8TH REPUBLICAN SCIENTIFIC-ONLINE
CONFERENCE ON "INNOVATIVE APPROACHES, PROBLEMS,
SUGGESTIONS AND SOLUTIONS IN SCIENCE AND EDUCATION"**

30 JANUARY 2021

PART-1

Google Scholar

**I^WI WORLD of
JOURNALS**



www.academiascience.org

36.	MAKTABGACHA VA BOSHLANGICH TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TILLARNI O'RGATISH XUSUSIYATLARI Nosirova Dिल्фуза Mustafoyevna O'ktamova Mehriyoyo A'zamovna	119
37.	NAVOIY IJODI VA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA MA'NO UYG'UNLIGI Murodillayev Nurali Asliddin o'g'li	122
38.	“NURALI VA SEMURG” DOSTONI TILIDA QO'LLANGAN ANTROPONIMLAR TADQIQI Abatov Doston	126
39.	HAMID OLIMJON IJODIGA BIR NAZAR Olimova Farida Abdulnosirovna	129
40.	ШЕЪРИЯТДА ОНА ВА АЁЛ ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ Мадина Азизова	131
41.	ONA TILI DARSLARIDA BILIM VA METOD Solievna Shahnoza Xayrullo qizi	134
42.	ILMIY-FANTASTIKA JANRIDA AYZEK AZIMOVNING O'ZIGA XOS USLUBI PhD R.R. Kasimova, U.A. Tohirova	136
43.	USMON AZIM IJODIDA POETIK KECHINMANING BADIY OBRAZLI IFODASI Ro'ziyeva Dilsora	140
44.	USMON AZIM SHE'RIYATINING SOTSIOANTROPOLOGIYASIDA DUNYONING IJTIMOY-SIYOSIY MANZARASI Ro'ziyeva Dilsora	143
45.	THE PECULIARITIES OF THE UNITS OF LANGUAGE Urinova Dilbarkhon	146
46.	ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH Yo'liyeva Yulduz Toshpo'latovna	149
47.	LUG'AT YODLASH USULI (1 DAQIQADA 100-290 SO'Z YODLASH Zafar Orollov Asror o'g'li, Adxam Orollov Asror o'g'li, Abdug'ani Suyunov Shavkat o'g'li	151
48.	БОШЛАНҒИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ЛУҒАТ ДИКТАНТЛАРИ ЎТКАЗИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ Болтабоева Дилноза	154
49.	УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ОНА ТИЛИ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ Исмоилова Моҳиғул	156
50.	O'ZBEK TILINI O'RGANISHDA DIDAKTIK MATN BILAN ISHLASHNING SAMARADORLIGI Kutlimuratova Gauhar Atamuratovna	159
51.	БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ГАП БЎЛАКЛАРИНИ ЎРГАТИШДА ИЗЧИЛЛИК Мамаюнусова Зулфия Раҳимовна	161
52.	TIL TA'LIMIDA YOZUV SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOSI Dunyogo'zal Nazarova	164
53.	ПРОБЛЕМАТИКА ПОВЕСТИ М. А. БУЛГАКОВА «СОБАЧЬЕ СЕРДЦЕ» Абдугалиева Жанар Э.Н.Ешнйязова	166
54.	ТУРЛИ ТЕМПЕРАМЕНТЛИ ЎҚУВЧИЛАРГА ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎРГАТИШ ТАЖРИБАСИДАН Ҳилола Раҳимбердиева	168

ILMIY-FANTASTIKA JANRIDA AYZEK AZIMOVNING O'ZIGA XOS USLUBI

PhD R.R. Kasimova

BuxDU

U.A. Tohirova

II kurs magistranti

Badiiy adabiyot - ijtimoiy ong shaklining eng faol sohasidir. U hayotni har taraflama chuqur tasvirlashi bilan fanning boshqa sohalaridan ajralib turadi. Obrazlilik – badiiy adabiyot in'ikosining eng asosiy belgisi bo'lib, u hayotni jonlantirib, badiiy bo'yoqlarda tasvirlab, inson tuyg'ulariga ta'sir qiladi.

Ma'lumki, badiiy adabiyot qanday yashashni emas, qanday yashamaslik kerakligini ham o'rgatadi.

Adabiyotning badiiyligi uning obrazligidan kelib chiqadi. Badiiylilik deganda voqealikni hayotiy, jonli kartinalarda, o'quvchida estetik zavq, jonli tasavvur uyg'otadigan qilib tasvirlash darajasi tushuniladi. Badiiylilik asarda hayotning haqqoniy aks ettirilishi, xarakterlarning tipikligi, san'atkor talqin etgan ijtimoiy idealning muhimligi, asarning xalqchilligi, yozuvchining shakl va mazmun elementlarini bir-biriga mutanosib qilib uyushtirishi kabilar bilan belgilanar ekan, bu fantastik janrdagi asarlar uchun ham xosdir. Chunki bu asarlarda voqealikni mohiyati haqqoniylik bilan ochiladi, yuksak insoniy fazilatlar ulug'lanali, ilg'or g'oyalar ifodalanadi: kompozitsiya mukammal, til obrazli va shirali, barcha shakl elementlari g'oyaviy mazmunga mos bo'ladi. Ularning yuksak badiiyligi ana shularda ko'rinadi.

Amerika ilmiy – fantastika janri XX asr 50-yillariga kelib jahon adabiyotida fantastika janrining keng tarqalgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo'nalish ilm-fanning barcha sohalaridagi, shu jumladan, texnika va adabiyot sohalaridagi ta'sirining ko'rinishiga aylandi. Haqiqatan, bu fazoni kashf etishga bo'lgan qiziqish ortidagi tasavvurlarni shakllantirishga yordam berdi, shuningdek ijtimoiy – siyosiy tanqid va hajviyaning qisqarishiga erishilishiga ham asos bo'ldi. Amerika ilmiy fantastika janriga qiziqish va uni tushunish zamonaviy adabiyotda bu yo'nalishning o'sha davr uchun ahamiyat kasb etib, jurnallarda aralash chop ettiriladigan fantastikaning bir oddiy ko'rinishidan zamonaviy romannavislikning keng tarqalgan yo'nalishiga aylantirdi. Klerison bu uslubdagi asarlarda asosiy mavzu insoniyatning yadro urushi qirg'inlari bashoratidek muvaffaqiyatni va 1960-yillardagi xilma-xillikni ko'rsatib berishini aytib o'tadi. Ayzik Azimov, Robert A. Heynleyn, Jon W. Kempbel, Rey Bredberi, Marjori Nikolson, Maks Erlich, Judi Merrill, Kurt Vonnigut kabi yozuvchilar ham shu mavzularda asarlar yaratgan mashhur fantastiknavislardir.

XX asr ilmiy-ommabop va ilmiy-fantastik adabiyotining yorqin namoyondasi, amerika yozuvchisi Ayzek Azimov 1920-yil 2-yanvar sanasida Rossiyaning Mogilyov guberniyasi (hozirda Smolensk viloyati), Petrovichi shahrida, tegirmonchi oilasida tug'ilgan. Ayzek Azimov Juda va Rakel Azimov uch farzandining to'ng'ichi edi. Unga ona tomondan bobosining xotirasi uchun, bobosining ismini qo'yishgan ekan.

1923-yilda A. Azimovlar oilasi AQSH ga muhojirlikka ketishadi. O'sha vaqtda u atigi uch yoshda bo'lgan. U o'zi haqida hazil aralash "ota-onam meni chamadonda olib kelishgan" der edi. A. Azimov Nyu-Yorkning Bruklin shaharchasida o'sib voyaga yetadi va shu yerda ular qandolatchilik do'koni ochishadi.¹¹

A. Azimovning ilmiy fantastikaga qiziqishi uning shirinlik do'koni yonida sotiladigan bir nechta ilmiy-fantastik jurnallarni o'qib ko'rganida boshlanadi. Ammo otasi ularni o'qishiga qarshilik qiladi. Do'konda yangi "Science wonder stories" deb nomlangan yangi jurnal paydo bo'lgach, A. Azimov otasini bu juda jiddiy jurnal deb ishontiradi va natijada uni o'qishga ruxsat oladi. U tezda ilmiy-fantastik asarlar ishqiboziga aylanadi. A. Azimov muharrirlarga maktublar yozib, jurnalda paydo bo'lgan hikoyalarni sharhlab, o'z hikoyalarni yozishga harakat qiladi.

Ayzek Azimov ijod olamiga juda erta kirib kelgan. Uning ilk asari kichik bir shaharchada yashovchi bolakayning sarguzashtlari haqida bo'lib, bu vaqtda atiga 11 yoshda bo'lgan bo'lajak yozuvchi, kitobning 8-bobgacha yozib, so'ngra tashlab yuboradi. Lekin undagi voqealarni o'z o'rtog'iga gapirib berganida, o'rtog'i bunga qattiq qiziqib qolib, davomini yozib berishini talab qila boshlaydi. Ayzek Azimov, keyinchalik ham, o'sha daqiqa uning uchun o'zida yozuvchilik iste'dodi borligini anglashga turtki berganligini ko'p eslagan.

Amerika adabiyoti kolonial kunlardan to hozirgacha uzoq va mashaqqatli yo'l bosib o'tdi. Jamiyat, tarix va texnologiya unga sezilarli ta'sir o'tkazdi. XX asr 50-yillariga kelib, ilmiy – fantastika janri jahon adabiyotida fantastika janrining keng tarqalgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo'nalish ilm-fanning barcha sohalaridagi, shu jumladan, texnika va adabiyot sohalaridagi ta'sirining ko'rinishiga aylandi. Amerika adabiyotining qalami o'tkir yozuvchilaridan Ayzek Azimov yaratgan bir qancha asarlar ham XX asr Amerika adabiyoti ilmiy fantastika janri taraqqiy etishiga sabab bo'ldi, desak adashmaymiz. Bu asarlarning ko'pchiligi texnik janrga asoslangandir. Yozuvchi qalamiga mansub romanlar odatda fan – texnika olami va bu sohada inson harakatlarining muvaffaqiyatsiz yakunini tasvirlaydi. Shu sababli ham, biz Ayzek Azimovni ilmiy-fantastika janrining asoschisi deya olamiz. Uning asarlari adabiyotning ilmiy-fantastik yo'nalishidagi eng sara namunalaridandir. "Koinot oqimari" asari ham Azimov ijodiga mansub Amerika ilmiy – fantastika

¹¹ M. Bakoeva, E. Muratova, M. Ochilova. "English Literature" – T.: Tashkent, 2006. – B. 140-145.

janrining durdona asarlardan biridir. Asarda tilga olingan uskunalar va uslublari 1950-yillardagi eng noyob texnologiyalar tasvirini o'zida mujassamlashtiradi. "Koinot oqimlari" da eng yaxshi ilmiy-fantastik janrdagi asarning barcha komponentlarini ko'rish mumkin.

"Koinot oqimlari" asari 1952-yilda yozuvchining ayni qizg'in ijod pallasida yaratilgan bo'lib, kitobxonlar e'tiboriga tushgan bebaho fantastik asardir. "Koinot oqimlari" da eng yaxshi ilmiy-fantastik janrdagi asarning barcha komponentlarini ko'rish mumkin. Matnning asosiy nuqtasi shundaki, asar muallif tomonidan hikoya qilinadi, matnko'chirma gaplardan va qisqa dialoglardan tashkil topadi.

Asarda keltirilgan 1950-yillardagi fazoviy texnika yutuqlarining muhokamasi: masofaviy nazorat uskunalari, koinotdagi sayyoralar va yulduzlarni tadqiq qiluvchi mexanizmlar, fazoviy kemalar o'sha davr kitobxonalari uchun hali yangilik sanalgan.

Aytek Azimovning yana bir qirrasini borki, bu jihat "Koinot oqimlari" fantastik romanida yaqqol ko'zgà tashlanadi. U bir xalqning ikkinchi xalq ustiga bostirib kelib, uni yoppasiga qulga aylantirib ishlatib, ushbu mehnat natijasidan faqat o'zi "non va yog'"ga ega bo'lishini keskin qoralaydi. Sark va Florina o'rtasidagi munosabatlar XX asrning o'rtalarida kolonial kuchlar va ularning koloniyalari orasidagi vaziyatga o'xshashdir, bu yerda Floriniyaliklar kirt maydonlarida ishlashga majbur qilinib sarkliklardan pastroq irq sifatida qaraladilar.

Aytek Azimovning ijodiga mansub asarlar har qaysi davrda ham o'zining yuksak o'rniga ega bo'lib qoladi. Azimovning asarlarida texnologiyaning qanday yaratilishi, uning insoniyat uchun qanday foyda keltira olishi to'g'risidagi g'oyalar ilgari surilgan. Uning fikricha, robotlar yoki texnologiyalar insoniyatni falokatga olib bormasligi, balki odamzot uchun eng yaxshi yordamchi bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Uning asl kasbi biokimyo bo'lganligi uchun, hikoyalarida o'z kasbidan kelib chiqqan holda, kimyoviy moddalar va ularning reaksiyalari haqida yozgan. Shuningdek astronomiya sohasiga murojaat qilib, hikoyalari orqali o'zining ilmiy qarashlarini bayon etgan. Uning ko'plab asarlari asosida mashhur kinofilmlar ishlangan. Yozuvchining asarlari jahonning o'nlab tillariga tarjima qilingan va millonlab qayta-qayta nashr etilgan. Jumladan, jahonga mashhur ushbu fantast-yozuvchining asarlari orasida o'zbek tiliga tarjima qilinganlari ham bor. Uning "Koinot oqimlari" romani hamda, qator hikoyalari o'zbek fantast yozuvchisi Ozod Mo'min tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan.

Aytek Azimov ilmiy fantastikada barakali ijod qilgan. Uning ko'plab asarlari kosmik kemalar ishtirokida, o'zga galaktikalardagi hayotni tasvirlaydi. Uning "Sirli nur", "Pushtirang falokat", "Birinchi sinov" kabi hikoyalari ilmiy fantastika janridagi eng yaxshi hikoyalar sifatida tan olingan. A. Azimov asarlari ilmiy fantastikaning "kosmosga sayohat" yo'nalishida yozilgan bo'lib, undagi voqealar samokezar kemalarning kosmosga uyushtirgan sayohati, o'zga sayyoraliklar, ularning hayot tarzi

yoxud ularning insoniyatga, yer kurrasiga qanday ta'sir ko'rsatishi kabilar yoritiladi. Adibning o'ziga xos yozish uslubi mavjud bo'lib, ingliz adabiyotidagi birorta ijodkorga taqlid qilmaydi. Asarlarida ilm-fanning kelgusida erisha olishi mumkin bo'lgan kashfiyotlari bayon etiladi.

Ingliz adabiyotida A.Azimov, ilmiy-fantastikani mustaqil janr sifatida taraqqiy etishiga katta hissa qo'shgan. U yaratgan asarlar yaxshilik bilan yakun topadi, qahramonlar asar so'ngida o'z yo'llarini topib, baxtga erishishadi. Ijodkor yaratgan asarlari bilan insonlarni ezgulikka, yaxshilik qilishga chorlaydi. Yaratilgan kashfiyotlar, izlanishlarning barchasi insoniyat uchun foyda keltirishi, ilm fan insonlar hayotini yaxshilashga xizmat qilishi kerakligi ta'kidlanadi. Azimov asli kasbi biokimyogar bo'lgani uchun asarlarida asosan kimyoviy moddalarning o'zaro ta'sirlari, ulardan qanday foydalanish haqida yozadi. Ijodkorning asarlarida zamon va makon masalalari bir biridan farq qiladi. Uning asarlarida voqealar asosan yer yuzida insoniyat kelajakda ro'para bo'ladigan kashfiyotlar haqida bayon etiladi. Adibning astronomiya sohasiga murojaat etishi orqali uning kelajakda yurtimizda bu sohaning qay darajada rivojlanishini ko'rsatmoqchi. Shu o'rinda Azimov asarlari orqali o'zining ilmiy bashoratlarini bayon etgan bo'lib, ular haqiqatdanam amalga oshmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida robot texnologiyasini keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adib nafaqat ilmiy-fantastikaning, balki jahon adabiyotining rivojiga ham munosib hissa qo'shdi. Uning ijodiy merosi har tomonlama o'rganishga va tadqiq etishga loyiqdir. Uning asarlarining tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo'lib, kitobxonni chuqur mulohazaga boshlaydi. Insonni o'zini o'zi anglashga, hayotda to'g'ri yo'ldan borishga, vijdonli, e'tiqodli bo'lishga undaydi, insonlar mehr oqibat va bag'rikenglikni shakllantiradi. Shuningdek, adibning ijodiy merosi yoshlarni dunyoqarashini o'stirish, ezgu qadriyatlar ruhida tabiiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Осипов А. Н. Фантастика от "А" до "Я" М.:1999.
2. Сиротин А. "Фантазии о прогрессе". – И.: Москва, 2013 г.
3. Чернышева. Т. "Научная фантастика и современное мифотворчество" И.: "Наука". 1989
4. Asimov Isaac., "The Foundations of Science Fiction". –P.: 1982.
5. Bakoeva M, Muratova E, Ochilova M. "English Literature" – T: Tashkent, 2006.